

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti



MINISTRY OF HIGHER EDUCATION,
SCIENCE AND INNOVATIONS OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN
Tashkent State University of the Uzbek
Language and Literature named after
Alisher Navai

Toshkent sh., Yakkasaroy tum., Yusuf Xos Hojib
ko‘chasi, 103 Web-site: www.tsuull.uz
E-mail: toshdotau@exat.uz Tel:71-281-45-11

103, Yusuf Xos Hojib st., Yakkasaroy dstr., Tashkent city
Web-site: www.tsuull.uz
E-mail: toshdotau@exat.uz Tel:71-281-45-11

№ 04/1-5534

2025 - yil 15-noyabr

Samarqand davlat universitetining Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi Musurmankulova Madina Nosirovnaning “Bino-inshoot va qurilish atamalarining rus, o‘zbek va ingliz tillaridagi qiyosiy tadqiqoti” mavzusida filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi ilmiy natijalari va xulosalaridan davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasidagi loyihalarni bajarishda foydalanilganligi to‘g‘risida

MA’LUMOTNOMA

Musurmankulova Madina Nosirovnaning 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligidan “Bino-inshoot va qurilish atamalarining rus, o‘zbek va ingliz tillaridagi qiyosiy tadqiqoti” mavzusida filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi ilmiy natijalari va materiallaridan davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2020-2023-yillarda bajarilgan AM-F3-201908172 “O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish” nomli amaliy loyihasida foydalanilgan. Jumladan, tadqiqotdagi:

Ingliz tilidagi bino-inshoot va qurilish atamalari lotin va yunon manbalariga borib taqalib, ular global texnik leksika bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan bo‘lsa, rus tilidagi terminlarning aksariyati nemis va fransuz texnik adabiyotlari asosida kirib kelgan va mahalliyashtirilgan, o‘zbek tilida esa qurilishga oid asosiy atamalar tarixan arab, fors, turkiy ildizlardan tarkib topgan bo‘lib, keyinchalik rus tilidan o‘zlashtirilgan yangi terminlar qatlamini o‘z ichiga olishiga oid xulosa va natijalaridan ilmiy manba sifatida foydalanilgan.

Qiyoslanayotgan tillardagi bino-inshoot va qurilish atamalarining shakllanishi so‘z ma’nolarining o‘zgarishi: oddiy so‘zlarga maxsus ma’no berish; majoziy qayta talqin qilish; tushunchalarning yaqinligi; turli tizimlar o‘rtasidagi o‘zaro qabul qilish; boshqa tillardan o‘zlashtirish kabi omillar asosida shakllanishiga oid dissertatsiyaning xulosa va natijalaridan foydalanilgan.

Ushbu ma’lumotnoma Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengashga taqdim etish uchun berildi.

Tadqiqotchi mazkur loyihada bevosita ishtirok etmagan.

Asos: loyiha rahbari ma’lumotnomasi.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti OO‘MTVning 16.07.2021-yil 311-sonli buyrug‘iga muvofiq tayanch oliy ta’lim muassasasi hisoblanadi.

Rektor



Sh.Sirojiddinov